

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

HAMROYEVA MATLUBA FARMONOVNA

**MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALAGICHNING QOZIQCHALI
BARABAN KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRIB TOZALASH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.02.03–Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

UO‘K: 677.021.163.001.76

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Oglavlениye avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
po texnicheskom naukam**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Hamroyeva Matluba Farmonovna

Mayda iflosliklardan tozalagichning qoziqchali baraban
konstruksiyasini takomillashtirib tozalash samaradorligini oshirish..... 3

Хамроева Матлуба Фармоновна

Повышение эффективности очистки очистителя от мелких сорных
примесей за счет усовершенствования конструкции колкового 23
барабана.....

Hamroyeva Matluba Farmonovna

Increasing the efficiency of cleaning the cleaner from small impurities
by improving the design of the pick drum..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 48

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

HAMROYEVA MATLUBA FARMONOVNA

**MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALAGICHNING QOZIQCHALI
BARABAN KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRIB TOZALASH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.02.03–Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyaa komissiyasida B2025.2.PhD/T5669 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttesi.uz) va "Zionet" Axborot-ta'lim portalida (www.Zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ro'zmetov Rahmatjon Ibodullayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich
texnika fanlari doktori, professor
Mavlyanov Aybek Palvanbayevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
professor

Yetakchi tashkilot:


O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi M.T. O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 3-iyun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi.(Manzil:100100,Toshkent sh.,Shohjahon-5,tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: pochta@ttesi.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).


Dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№297-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 19-may kuni tarqatildi.
(2026-yil 19-maydagi № 297-raqamli reyestr bayonnomasi).




X.H. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor


A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor


Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda to‘qimachilik sanoatida foydalaniladigan tola miqdorining asosiy qismi 57÷62 foizini paxta tolasini tashkil etmoqda. «Dunyo miqyosida 24 mln. tonna paxta tolasini ishlab chiqarilishini hisobga olsak», paxta tolasini tarkibidagi ifloslik va nuqsonlarni samarali, energiya va resurstejamkor tozalash mashinalarini amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan jahon paxta-to‘qimachilik sanoatida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunalari takomillashtirish hamda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta xomashyosini dastlabki ishlashning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va oqilona foydalanishni oshirish, jahon paxta-to‘qimachilik bozorida raqobatbardosh qo‘shimcha qiymatli yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, paxtani mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasini yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, paxtani mayda iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyasi va tozalagichlarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish, paxtani tozalash jarayonida havo oqimining tezligi va bosimini, ishlash rejimlarini optimallashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalash, xomashyoni dastlabki ishlashning rentabelligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish.." bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxtani mayda iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyasini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi¹, 2021 yil 16 noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi², 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi³ Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli Farmoni.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi "Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-14-sonli Farmon.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-2-sonli Farmon.

Mahkamasining 2021 yil 4 dekabrda 733-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi⁴ Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishidagi tadqiqotlar ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunalarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator chet el olimlari W.S. Anthony, F. Veliev, J. Tian, C.B. Armijo, C. Rojas, P.K. Mishra, R.T. Kaldibayev, J.D. Wanjura, R.G. Hardin IV, A.F. Plexanov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxtani iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarning ko‘rsatkichlari va ishlash rejimlari takomillashtirish bo‘yicha bir qator olimlar, shu jumladan S.D. Boltabayev, G.I. Miroshnichenko, G.D. Djabbarov, R.Z. Burnashev, A.YE. Lugachev, A. Parpiyev, A. Djurayev, Y.S. Sosnovskiy, I.D. Madumarov, P.N. Borodin, SH.SH. Xakimov, X.S. Usmonov, R.I. Ruzmetov va boshqalar bu soha rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

Ammo, xorijiy va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunalarining tahlili ularning ishchi qismlari samaradorliklarini oshirish muammosini o‘zining yechimini topmaganligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universiteti bilan “Buxoro Zarhal Teks” MChJ korxonasi o‘rtasida “Mayda iflosliklardan tozalagichning qoziqchali baraban konstruksiyasini takomillashtirib tozalash samaradorligini oshirish” mavzusida 416-sonli (2025-2027) xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta tozalash korxonalarida mavjud mayda iflosliklardan tozalagichning qoziqchali baraban konstruksiyasini takomillashtirib tozalash samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy va xorijiy paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunalarini ishlash jarayonlarini tahlil etish va takomillashtirilgan qoziqchali-plankali barabanning yangi sxemasini tanlash;

qoziqchali-plankali barabanlarda paxta bo‘laklarini titilishini va har bir qoziqchalarning paxta oqimiga ta’sir qiluvchi kuchlar tahlil qilish;

turli kombinatsiyada joylashgan qoziqchali plankali barabanlarning tozalash samaradorligiga ta’sirini aniqlash;

takomillashtirilgan turli kombinatsiyada joylashgan qoziqchali plankali barabanlar ornatilgan tozalagichni ishlab chiqish, tajriba sinovlarini o‘tkazish va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning obekti sifatida paxtani mayda iflos aralashmalar tozalash uskunasi va

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabrda 733-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori.

tozalash texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayoni olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida paxtani mayda iflosliklardan tozalash, paxtani dastlabki ishlash texnologik bosqichlarida sifat ko'rsatkichlarini davlat standartlarida keltirilgan metodikalar asosida aniqlash, zarba nazariyasi, tajriba natijalarini matematik statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta oqimining qoziqchali-plankali barabanda harakatini dinamik modellashtirish asosida differentsial tenglamalar olinib, baraban qoziqchalarining optimal balandliklari aniqlangan;

tozalash jarayonida iflosliklarni ajralishi hisobiga massasining kamayishini ifodalovchi model asosida turli yuza teshiklari orkali paxta bo'lakchalaridan tozalangan iflos aralashmalarni chiqib ketishini jadallashtiruvchi qoziqchali baraban plankalarining ratsional qiymatlari aniqlangan;

tozalagichda paxta oqimi yo'nalishi bo'yicha turli kombinatsiyada joylashgan konstruksiyadagi qoziqchali-plankali barabanlar o'rnatish asosida mayda iflosliklardan tozalash uskunasi takomillashtirilgan;

paxta oqimining dinamik harakatini tavsiflovchi differentsial tenglamalar ishlab chiqish asosida paxta bo'lakchalaridan iflos aralashmalarni ajralishini oshirish imkoniyatini beruvchi tozalash zonasidagi paxtani tebranish chastotasi, inertsiya kuchlari va havo oqimining ratsional qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtani tozalash samaradorligini oshirish imkonini beruvchi takomillashtirilgan tozalagich ishlab chiqilgan;

qoziqchali-plankali barabanning tashqi diametri saqlagan holda qoziqchalari va plankalarining ratsional qiymatlari aniqlangan;

tozalagichning ish unumdorligi bilan tozalash samaradorligi va paxtadagi qoldiq ifloslik o'rtasidagi bog'lanishlar olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi paxtadan mayda iflosliklarni tozalash uskunalarini nazariy tadqiqotlari natijasining amaliy sinovi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyasiga mantiqan mos kelishi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarish korxonasiga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati mayda iflosliklardan tozalashda har bir qoziqchali plankali barabandagi paxta oqimidan tozalash samaradorligiga erishishda qoziqchalarning uzunligi va burchak tezliklari har bir qoziqchalar va to'rtli yuza orasidan oqib o'tuvchi paxta massasiga bog'liqlik tenglamasi ishlab chiqilganligi, tozalash jarayonida iflosliklarni ajralishi hisobiga massasining kamayishini ifodalovchi model asosida plankaning ratsional qiymatlarining nazariy-amaliy asosida mayda iflosliklardan tozalovchi uskunaning ishchi qismlarining ish tartiblari va ko'rsatkichlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, mayda iflosliklardan tozalash uskunasi paxtani harakat yo'nalishi bo'yicha turli konstruksiyada o'rnatilgan qoziqchali-plankali

barabanlardan iborat tozalagichning yangi konstruksiya ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasi takomillashtirish boyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tavsiya etilayotgan turli konstruksiyadagi qoziqchali-plankali barabanlari oʻrnatilgan mayda iflosliklardan tozalash uskunasi “Zarxal teks” MCHJ paxta tozalash korxonasida tadbiiq etilgan (Oʻzbekiston respublikasi “Oʻztoʻqimachilik sanoat” uyushmasining 2025-yil 19-avgustdagi 02/25-2020 sonli maʼlumotnomasi). Natijada turli konstruksiyadagi qoziqchali-plankali barabanlarning paxtaga berilayotgan zarba kuchlarining oʻzgarishi hisobiga uskunaning tozalash samardorligi 6,43 % ga oshishiga va ishlab chiqarilgan tola tarkibidagi ifloslik va nuqson miqdorini 0,48 % ga kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta jurnalda maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 108 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida paxtani mayda iflos aralashmalardan tozalash texnologiyasi, paxtani mayda iflosliklardan tozalashning mahalliy texnika va texnologiyalarini takomillashtirish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, paxtani mayda iflosliklardan tozalashning xorijiy texnika va texnologiyalari hamda ularni takomillashtirish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasi qoziqchali-plankali baraban parametrlarini nazariy tadqiq etish**” deb nomlangan ikkinchi bobida takomillashtirilgan qoziqchali-plankali barabanning yangi sxemasini tanlash, qoziqchali-plankali barabanlarda paxta boʻlaklarini titilishini tahlili hamda har bir qoziqchalarning paxta oqimiga taʼsir qiluvchi kuchlar tahlili aniqlangan.

Paxta oqimining qoziqchali-plankali barabanlar orqali harakatlanishi jarayonida paxtaga tashqi kuchlarning taʼsirini matematik jihatdan ifodalash uchun S.M. Targ tomonidan ishlab chiqilgan dinamik harakat tenglamasidan foydalanildi. Mazkur tenglama paxta boʻlakchalariga taʼsir etuvchi asosiy tashqi kuchlar —

og'irlik kuchi ($G = mg$), markazdan qochma inertsia kuchi ($F_c = m\omega^2 r$), elastiklik kuchi (k_x), shuningdek, aerodinamik qarshilik kuchlari (F_a) ni hisobga oladi.



1-rasm. Turli xil qoziqchali plankali barabanning paxta oqimiga ta'sir sxemasi

Qoziqchali-plankali barabanlar yordamida paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalash jarayonida qoziqchalar va plankalar uzunligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadqiqotlarda qoziqchalar uzunligi $h_i = 50 \div 95 \text{ mm}$ diapazonda, plankalar uzunligi esa $L = 40 \div 85 \text{ mm}$ oraliqda o'zgartirildi. Ushbu konstruktiv parametrlarning o'zgarishi oqibatida baraban-to'r oralig'ida shakllanadigan aerodinamik oqim tezligi, bosim gradienti va turbulentslik darajasi hamda paxta oqimining tezlanishi sezilarli tarzda o'zgarishi kuzatildi.

Paxta oqimining qoziqchali-plankali barabanda harakatini ifodalash uchun dinamik modellashtirish asosida quyidagi differensial tenglama qabul qilamiz:

$$\ddot{S} + 2\omega\dot{S} - \frac{k}{m}S = \omega^2 h_i + g \sin \alpha + fg \cos \alpha + \frac{kv_0 t}{m} \quad (1)$$

bu yerda f – ishqalanish koeffitsiyenti; v_0 – qoziqchani boshlang'ich tezligi; h_i – qoziqcha uzunligi; α – plankaning joylashish burchagi; m – paxta bo'lakchasining massasi; k – elastiklik koeffitsiyenti, $F_{kor} = 2 \cdot m \cdot \omega \cdot \dot{S}$ – kariolic kuchi; $F_{m.k} = m\omega^2 h$ – markazdan qochma kuch; $F = mg$ – og'irlik kuchi; $\frac{k}{m} = z^2$ – bu yerda z – tabiiy chastota.

Avvalo, (1) tenglamaning o'ng qismini nolga tenglashtirib, bir jinsli differensial tenglama ko'rinishini hosil qilamiz:

$$\lambda^2 + 2\omega\lambda - z^2 = 0 \quad (2)$$

bu yerda λ — xarakteristik ildizlar, ω — baraban burchak tezligi, $z = \sqrt{\frac{k}{m}}$ — tizimning elastiklik va massa nisbatidan kelib chiqadigan tabiiy chastota.

(2) tenglamani yechish orqali umumiy holda quyidagi yechim olinadi:

$$y_1 = c_1 e^{\lambda_1 t} + c_2 e^{\lambda_2 t} \quad (3)$$

bu yerda $\lambda_{1,2} = -\omega \pm 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2}$ holda (3) tenglamaning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi

$$Y_1 = C_1 e^{(-\omega + 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2})t} + C_2 e^{(-\omega - 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2})t} \quad (4)$$

Ushbu ifoda tizimning erkin tebranish komponentasi bo'lib, paxta bo'lakchasining qoziqcha-planka oralig'ida tashqi majburiy kuchlarsiz faqat ichki inertiya, elastiklik va dempfirlash ta'sirida harakatini ifodalaydi.

Keyingi bosqichda, majburiy kuchlar ta'sirida hosil bo'ladigan xususiy yechimni topamiz. Bu holda yechim sinusoidal xarakterga ega bo'lib, (1) tenglamani o'ng tomonini xususiy yechimini quyidagicha qabul qilinadi:

$$y_2 = A \cos \omega t + B \sin \omega t \quad (5)$$

quyidagicha aniqlaymiz

$$\begin{cases} \dot{y}_2 = -A\omega \sin \omega t + B\omega \cos \omega t \\ \ddot{y}_2 = -A\omega^2 \cos \omega t - B\omega^2 \sin \omega t \end{cases} \quad (6)$$

(6) tengliklarni (2.1) tenglikga qo'yib o'rgazmas koeffitsiyentlarni aniqlaymiz.

$$-A \cdot \omega^2 \cdot \cos \omega t + B \cdot \omega^2 \cdot \sin \omega t + 2 \cdot \omega \cdot (-A \cdot \omega \cdot \sin \omega t - B \cdot \omega \cdot \cos \omega t - \frac{k}{m} \cdot (A \cdot \cos \omega t + B \cdot \sin \omega t)) = g \cdot \sin \omega t + f \cdot g \cdot \cos \omega t \quad (7)$$

(7) tenglamadan $\sin \omega t$ va $\cos \omega t$ oldidagi koeffitsentlarni tenglashtirib quyidagi sistemani hosil qilamiz.

$$\begin{cases} -A \cdot \omega^2 + 2 \cdot B \cdot \omega^2 - A \cdot \frac{k}{m} = f \cdot g \\ -B \cdot \omega^2 - 2 \cdot A \cdot \omega^2 - B \cdot \frac{k}{m} = g \end{cases} \quad (8)$$

bu yerda

$$A = -\frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot f \cdot g + 2 \cdot \omega^2 \cdot g}{5 \cdot \omega^4 + 2 \cdot \omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}}; \quad B = -\frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot g - 2 \cdot f \cdot g \cdot \omega^2}{5 \cdot \omega^4 + 2 \cdot \omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}};$$

(6) tenglamada aniqlangan koeffitsiyentlarni qiymatini (5) tenglikga qo'yamiz

$$Y_2 = -\frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot f \cdot g + 2 \cdot \omega^2 \cdot g}{5 \cdot \omega^4 + 2 \cdot \omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}} \cdot \cos \omega t - \frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot g - 2 \cdot f \cdot g \cdot \omega^2}{5 \cdot \omega^4 + 2 \cdot \omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}} \cdot \sin \omega t$$

Qoziqchalar ta'sirida paxta oqimini umumiy harakat tenglamasini quyidagicha aniqlaymiz

$$Y = Y_1 + Y_2;$$

$$Y = C_1 e^{(-\omega + 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2})t} + c_2 e^{(-\omega - 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2})t} -$$

$$-\frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot f \cdot g + 2 \cdot \omega^2 \cdot g}{5 \cdot \omega^4 + 2 \cdot \omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}} \cdot \cos \omega t - \frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot g - 2 \cdot f \cdot g \cdot \omega^2}{5 \cdot \omega^4 + 2 \cdot \omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}} \cdot \sin \omega t \quad (9)$$

(9) tenglamadagi S_1 va S_2 o'zgarmas qiymatlarni boshlang'ich shartdan foydalanib aniqlaymiz $t = 0 \quad Y = 0 \quad \dot{Y} = 0$ bundan.

$$\begin{cases} c_1 + c_2 - \frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot f \cdot g + 2 \cdot \omega^2 g}{5 \cdot \omega^4 + 2\omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}} = 0 \\ (-\omega + 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2}) \cdot c_1 - (\omega + 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2}) \cdot c_2 - \frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot g - 2 \cdot f \cdot g \cdot \omega^2}{5 \cdot \omega^4 + 2\omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}} \cdot \omega = 0 \end{cases} \quad (10)$$

(10) tenglamalardan s_1 va s_2 qiymatini (9) tenglikga qo'yib xar bir qoziqchali plankali barabandan o'tuvchi paxta oqimining harakatini ifodalovchi tenglamani aniqlaymiz.

$$C_1 = \frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot g - 2 \cdot f \cdot g \cdot \omega^2}{10 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot \frac{k}{m} + 2 \cdot \frac{k^2}{m^2}} - \frac{\left(\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot f \cdot g + 2 \cdot \omega^2 \cdot g\right) \left(\omega + 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2}\right)}{2 \cdot \omega} = A$$


$$C_2 = -\frac{\left(-\omega + 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2}\right) \cdot \left(\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot f \cdot g + 2 \cdot \omega^2 \cdot g\right)}{2 \cdot \omega} + \frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot g - 2 \cdot f \cdot g \cdot \omega^2}{10 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot \frac{k}{m} + 2 \cdot \frac{k^2}{m^2}} = B$$

belgilashlar kiritamiz va (9) tenglamani quyidagicha yozamiz


$$S = A \cdot e^{(-\omega + 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2})t} + B \cdot e^{(-\omega - 2 \cdot \sqrt{z^2 + \omega^2})t} - \frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot f \cdot g + 2 \cdot \omega^2 \cdot g}{5 \cdot \omega^4 + 2\omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}} \cdot \cos \omega t - \frac{\left(\omega^2 + \frac{k}{m}\right) \cdot g - 2 \cdot f \cdot g \cdot \omega^2}{5 \cdot \omega^4 + 2\omega^2 \cdot \frac{k}{m} + \frac{k^2}{m^2}} \cdot \sin \omega t + \omega^2 \cdot h_i + \frac{k \cdot v_0 \cdot t}{m} \quad (11)$$

(11) tenglamadan mayda iflosliklardan tozalashda har bir qoziqchali plankali barabandagi paxta oqimidan tozalash samaradorligiga erishishda qoziqchalarning uzunligi va burchak tezliklari har bir qoziqchalar va to'rli yuza orasidan oqib o'tuvchi paxta massasiga bog'liqlik tenglamasi keltirib chiqarildi. Maple dasturidan foydalanib, grafiklarda tahlil qilindi. Har bir qoziqchali-plankali barabandan uzatilayotgan paxta oqimidan mayda iflosliklarni ajratish jarayonida qoziqchali barabandan uzatilayotganda xar bir qoziqchalarning uzunligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda paxta oqimini uzatish masofasi 65 mm ekanligini inobatga olsak, I-qoziqchali baraban uchun qoziqchanning uzunligi $h_3 = 50 \text{ mm}$ bo'lganda, II-qoziqchali baraban uchun qoziqchanning uzunligi $h_4 = 65 \text{ mm}$ bo'lganda, III-qoziqchali baraban uchun qoziqchanning uzunligi $h_2 = 80 \text{ mm}$ bo'lganda, IV-qoziqchali baraban uchun $h_3 = 95 \text{ mm}$ bo'lganda paxta oqimini bir tekisda uzatish shu orqali qoziqchalar ta'sirini kamaytirish natijada shikastlanishini kamaytirish orqali tozalash samaradorligini oshishi yuqoridagi grafiklarda keltirilgan.


Grafikda tozalagichdagi paxta bo'lakchalarini siljish (S, mm)ning vaqt (t, s) bo'yicha dinamikasi turli qoziqchali-plankali barabanlardagi (h_i) holatlar uchun taqqoslangan. Vaqt intervali 0 dan 1,8 sekundgacha olingan, siljishning yuqori chegarasi esa 1600 mm bilan cheklangan.




I-qoziqchali baraban uchun
2-rasm. Paxta bo‘lakchalarini
 qoziqchalarning turli xil $h_1 = 40 \text{ mm}$,
 $h_2 = 45 \text{ mm}$, $h_3 = 50 \text{ mm}$ va $h_4 = 55 \text{ mm}$
 qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi



II-qoziqchali baraban uchun
3-rasm. Paxta bo‘lakchalarini
 qoziqchalarning turli xil $h_1 = 50 \text{ mm}$,
 $h_2 = 55 \text{ mm}$, $h_3 = 60 \text{ mm}$ u $h_4 = 65 \text{ mm}$
 qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi




III-qoziqchali baraban uchun
4-rasm. Paxta bo‘lakchalarini
 qoziqchalarning turli xil $h_1 = 75 \text{ mm}$,
 $h_2 = 80 \text{ mm}$, $h_3 = 85 \text{ mm}$ va $h_4 = 90 \text{ mm}$
 qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi



IV-qoziqchali baraban uchun
5-rasm. Paxta bo‘lakchalarini
 qoziqchalarning turli xil $h_1 = 85 \text{ mm}$;
 $h_2 = 90 \text{ mm}$; $h_3 = 95 \text{ mm}$; $h_4 = 100 \text{ mm}$
 qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi

Vaqt va siljish orasidagi bog‘lanish. Barcha holatlarda siljish bir xil yo‘nalishda, vaqtga nisbatan deyarli monoton o‘svuchi funksiya ko‘rinishida. Bu uskunaning aero-mexanik kuchi orqali yo‘naltirilgan harakatning uzluksiz kuchayib borishini anglatadi. Qoziqcha va plankaning h_i ortishi bilan qoziqchali-plankali barabanning mexanik ta’sir radiusi kengayadi, natijada markazdan qochma kuch va havo oqimining lokal bosimi o’sadi. Shu sababli kattaroq h_i qiymatlari yuqoriroq siljish sur’atini ta’minlaydi va iflosliklarni teshikdan chiqib ketishini jadallashtiradi. Siljish gradiyenti (dS/dt): vaqtga nisbatan siljish gradiyenti h_i qiymati ortishi bilan sezilarli ravishda oshadi. Masalan, $t=1.0 \text{ s}$ vaqtida $h_i=95 \text{ mm}$ uchun gradiyent taxminan $h_i=50 \text{ mm}$ ga nisbatan ikki baravar kattaroq. Siljishning cheklanishi: grafik 1600 mm bilan cheklangan bo‘lsa-da, $h_i=95 \text{ mm}$ chizig‘i 1.8 s da bu qiymatga yetib borgan. Bu holat amalda uskunadan chiqib ketishini anglatadi.



6-rasm. Turli qoziqchali-plankali barabanlarda paxta bo‘lakchalarini siljishini vaqtga bog‘liqlik grafigi

Siljishning vaqt bo‘yicha o‘shishi h_i qiymati ortishi bilan keskin kuchayadi. $h_i=95$ mm eng yuqori dinamik samaradorlikni bersa-da, tozalash jarayonida tola shikastlanishi xavfi katta. $h_i=65-80$ mm intervali texnik-iqtisodiy jihatdan optimal hisoblanadi. Amalda 1600 mm siljish chegarasi tozalash uskunasi uchun konstruktiv yoki ekspluatatsion limit sifatida qabul qilinishi mumkin.

I-zona (ko‘k qism) tozalash samaradorlik 20 %, birinchi zona juda faol ishlaydi, umumiy samaradorlikning qariyb yarmini shu zona bermoqda. Bu bosqichda asosan oson ajraladigan iflosliklar havo oqimi va mexanik ta’sir orqali chiqib ketadi. II-zona (oranj qism) tozalash samaradorlik 12 %, Samaradorlik o‘shishi I-zonaga nisbatan pastroq, lekin ikkinchi muhim hissani ta’minlaydi. Bu bosqichda asosan tolagaga ko‘proq yopishgan mayda iflosliklar ajraladi.

III-zona (yashil qism) tozalash samaradorlik 8 %, Bu zonada paxta tarkibidagi iflosliklar miqdorini kamayishi hisobiga tozalash jarayoni sekinlashadi. Qiyin ajraladigan mayda iflosliklar bosqichma-bosqich chiqariladi. IV-zona (qizil qism) tozalash samaradorlik 8 %, yakuniy bosqichda tozalash jarayoni deyarli “qoldiq” samaradorlikni ta’minlaydi. Bu zona texnologik siklni to‘liq yakunlash uchun zarur: aks holda umumiy samaradorlik 40 % atrofida qolib ketadi.



7-rasm. Turli o‘lchamdagi qoziqchali-plankali barabanning tozalash samaradorligini vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi

Umumiy samaradorlik 48 % ni tashkil etib, shuning 42 % I-zona hissasiga to‘g‘ri keladi. I-zonaning hissasi eng katta — bu uskunaning ilk bosqichlarda juda yuqori intensivlikda passiv iflosliklarni ajratishini ko‘rsatadi keyingi zonalarda

(II–IV) tozalash samaradorligi asta-sekin kamayib boradi. Bu tolaning tozalanishi qiyinlashishi va qoldiq iflosliklarni chiqarish uchun ko‘proq mexanik ta’sir berilishini taqazo etishi bilan izohlanadi. Umumiy samaradorlik grafigi parabola/eksponensialga yaqin — vaqt o‘tishi bilan o‘sish sekinlashib, yakunda 48 % atrofida barqarorlashadi.

Dissertatsiyaning **“Takomillashtirilgan qoziqchali plankali barabanlar konstruksiyasini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida qoziqchali-plankali barabanlarning turli konstruksiyasini iflosliklarni ajralish jarayoniga ta’siri, turli konstruksiyaligi qoziqchali-plankali barabanlarning tozalash samaradorligiga ta’siri, turli kombinatsiyada joylashgan qoziqchali plankali barabanlarning tozalash samaradorligiga ta’siri hamda qoziqchali plankali barabanlarda havo oqimi o‘zgarishi tadqiq etildi.

Qoziqchali-plankali barabanning umumiy diametrini saqlagan holda uning konstruktiv ko‘rsatkichlari, ya’ni qoziqchalari va plankalarining balandligini iflosliklarni ajralish jarayoniga ta’sirini o‘rganish maqsadida tadqiqotlar olib boramiz.

Tadqiqotlarimizda aylana shakldagi qoziqchali plankali barabanning diametri 400 mm, qoziqchalar o‘rnatiladigan qoplamaning diametrlari 300 mm (mavjud variant), 270 mm, 240 mm va 210 mm larda, qoziqchalarning uzunligi 50 mm (mavjud variant), 65 mm, 80 mm va 95 mm larda foydalanildi.

Qoziqchali plankali barabanlar qoplamasi 2 mm qalinlikdagi temir listdan yasaldi. Har bir barabanda 4ta qoplama tayyorlandi va ularga plankalarni e’tiborga olgan holda oraliq masofasi bir xil o‘lchamda o‘rnatildi. 270 mm li qoplamani yasash uchun 322 mm uzunlikda va eni 300 mm temir list kesib olindi. Kesib olingan temir listning 322 mm bo‘lgan tomonining ikki chetidan palnka hosil qilish uchun 55 mm dan egildi. Ikki tomoni 55 mm dan egilgan temir listni radiusi 135 mm bo‘lgan aylana kvadrantini shtamlash yordamida hosil qilindi. Shundan so‘ng egilgan yuzadan 30⁰ oraliqda ikki qator qoziqchalarni shaxmat shaklda o‘rnatilishi uchun 12 mm o‘lchamdagi teshiklar ochildi. Ochilgan teshiklarga 12 mm diametrda va qoplamadan chiqib turuvchi qismining uzunligi 65 mm bo‘lgan qoziqchalar payvandlash yordamida qotirildi. Qoziqchalar qotirilgan qoplamalar bir biriga plankalarda ochilgan teshiklarda gayka boltlar bilan qotirildi. Tayyorlangan qoziqchalar o‘rnatilgan qoplamalar valga flanets yordamida mustaxkamlandi.

Tozalash jarayonida qoziqcha va plankalarning balandligini oshishi natijasida paxta oqimining qalinligini oshirish va planka hosil qiladigan havo oqimini oshirishga erishish mumkinligini ko‘rib chiqamiz.

Qoziqchali plankali barabanlarning turli xil xil variantdagi konstruksiyalarining sxemasi 1-rasmda keltirilgan. Tadqiqot variantlaridagi qoziqchali plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichda olib borilgan tadqiqot natijalari uskunaning ish unumdorliklari bo‘yicha 9÷10-rasmlarda keltirilgan. Tadqiqotlarda Nam-77 seleksiya navidagi paxtani tozalashdan oldingi namligi 8,11 va 8,6 %larda va iflosligi 7,5; 10,3 %lardagi paxta xom ashyosidan foydalanildi.



Qoziqchali plankali barabanning umumiy diametri 400 mm, qoziqchalar oʻrnatiladigan qoplamaning diametri 300 mm, qoziqchalarning uzunligi 50 mm (mavjud variant)



Qoziqchali plankali barabanning umumiy diametri 400 mm, qoziqchalar oʻrnatiladigan qoplamaning diametri 270 mm, qoziqchalarning uzunligi 65 mm



Qoziqchali plankali barabanning umumiy diametri 400 mm, qoziqchalar oʻrnatiladigan qoplamaning diametri 240 mm, qoziqchalarning uzunligi 80 mm




Qoziqchali plankali barabanning umumiy diametri 400 mm, qoziqchalar oʻrnatiladigan qoplamaning diametri 210 mm, qoziqchalarning uzunligi 95 mm

8-rasm. Qoziqchali-plankali barabanlarning turli xil variantdagi konstruksiyalarining sxemasi va umumiy koʻrinishi

Dastlabki tajribalarimizda tadqiqot variantlaridagi qoziqchali plankali barabanlarni 1XK uskunasi kabi sakkiztasini xam toʻliq bir xil konstruksiyadan foydalandik.

Tozalash uskunasi ish unumdorligi 3 tonna/soatni tashkil etib, qoziqchali plankali barabanning umumiy diametri 400 mm, ichki qobigʻining diametri 300 mm va qoziqchalarining balandligi 50 mm ni va I nav paxta xomashyosi qayta ishlanganda ifloslikning kamayishi 4,55% gacha, paxtaning titilganlik darajasi 88,41 %ni, chigitni mexanik shikastlanishini oshishi 0,73 % tashkil etdi. III navda esa, ifloslikning kamayishi 5,96% gacha, paxtaning titilganlik darajasi 82,74 %ni, chigitni mexanik shikastlanishini oshishi 0,75 % tashkil etdi.




Qoziqchalar va ichki qoplamaning turli konstruksiyalari

■ - ish unumdorlik 3 tonna/soat; ■ - ish unumdorlik 5 tonna/soat; ■ - ish unumdorlik 7 tonna/soat.

9-rasm. Turli konstruksiyadagi qoziqchali plankali barabanlarda chigitning mexanik shikastlanishini o'zgarish gistogrammasi

Uskunaning ish unumdorligi oshishi bilan tozalagichdan so'ng chigitning mexanik shikastlanishini oshishi mavjud qoziqchali plankali barabanda 0,2 %ni tashkil etsa, qoziqchalarni uzunligini oshishi va ichki qobiqning kichrayishida esa aksincha chigitning mexanik shikastlanishi 0,2-0,3 %larga kamaymoqda (9-rasm). Demak, qoziqchalar va plankalarning balandligini oshishi chigitni mexanik shikastlanganligini oshishiga mavjud qoziqchali barabanlarga nisbatan kamroq salbiy ta'sir etishi aniqlanmoqda. Ushbu ijobiy konstruktiv yechimni keyingi tadqiqotlarimizda chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, paxtani tozalash jarayonida xomashyoni qanchalik darajada titilganligi yuqori bo'lsa, ifloslik ilashgan tolali yuzalarni ochilishi va ularni to'rtli yuza bilan ishqalanish ehtimolini oshirib, tozalash samaradorligini oshishiga xizmat qiladi. Barcha tadqiqot variantlarida uskunaning ish unumdorligini oshishi bilan tozalagichdan so'ng paxtani titilganlik darajasini pasayishi kuzatildi (10-rasm).



Qoziqchalar va ichki qoplamaning turli konstruksiyalari


■ - ish unumdorlik 3 tonna/soat; ■ - ish unumdorlik 5 tonna/soat; ■ - ish unumdorlik 7 tonna/soat.

10-rasm. Turli konstruksiyadagi qoziqchali plankali barabanlarda paxtaning titilganlik darajasini o'zgarish gistogrammasi

Olib borilgan tadqiqotlarda mayda iflosliklardan tozalovchi 1XK uskunasi laboratoriya namunasidagi 8ta qoziqchali barabanlarga tadqiqot variantlaridagi qoziqchali plankali barabanlar oʻrnatilib, iflosliklarning ajralishiga taʼsiri koʻrib chiqildi. Keyingi boʻlimlarda ushbu tadqiqot variantlaridagi qoziqchali plankali barabanlarning bir xil konstruksiyasini va kombinatsiyalashgan holda joylashuvini tozalash samaradorligiga taʼsirini tadqiq etamiz.

Tadqiqotlarda bir xil konstruksiyadagi turli variantdagi qoziqchali plankali barabanlarning uskunaning tozalash samaradorligiga taʼsirini tadqiq etish uchun laboratoriya tajribalarini oʻtkazamiz. Buning uchun dastlab 1XK uskunasi laboratoriya namunasiga mavjud qoziqchali plankali barabanlar oʻrnatilib, tajribalar oʻtkazildi. Tajribalar uch marta takrorlanishda oʻtkazildi. Har bir tajriba oʻtkazishda tozalashda ajralgan iflosliklar bunkerdan olinib, elektron tarozida vazni oʻlchandi hamda tozalash samaradorligi aniqlandi. Keyingi variantdagi qoziqchali plankali barabanlar oʻrnatilib, huddi shu tarzida tajribalar olib borildi. Tadqiqotlarda S65-24 seleksiya navidagi paxtani tozalashdan oldingi namligi 8,05 va 8,50 %larda va iflosligi 8,2; 11,5 %lardagi paxta xom ashyosidan foydalanildi.

Tadqiqot variantlaridagi qoziqchali plankali barabanlar oʻrnatilgan tozalagichda olib borilgan tadqiqot natijalari uskunaning ish unumdorliklari boʻyicha 11-rasmda keltirilgan.



Ish unumdorlikning 3 tonna/soatdan 7 tonna/soatga koʻtarilishida mavjud konstruksiyadagi qoziqchali plankali barabanning tozalash samaradorligi I nav xomashyoda 41,4 %dan 37,2 %gacha pasayib, tozalash samaradorlikning pasayishi 4,2% ni tashkil etdi. Qoziqchani balandligi 65 mm va qoplamaning diametri 270 mm boʻlgan qoziqchali-plankali barabanda tozalash samaradorlik 45,8 %dan 43,6%ga pasayib, tozalash samaradorlikni pasayishi 2,2 %ni tashkil etdi. Qoziqchani balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm boʻlgan qoziqchali-plankali barabanda tozalash samaradorlik 46,5 %dan 44,5%ga pasayib, tozalash samaradorlikni pasayishi 2 %ni tashkil etdi. Qoziqchani balandligi 95 mm

va qoplamaning diametri 210 mm bo'lgan qoziqchali-plankali barabanda tozalash samaradorlik 45,7 %dan 43,6%ga pasayib, tozalash samaradorlikni pasayishi 2,1 %ni tashkil etdi.

Tahlillardan ko'rinib turibiki, ish unumdorlikni 3 tonna/soatdan 7 tonna/soatga ko'tarilishida tozalash samaradorlikni eng kam pasayishi qoziqchanning balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm bo'lgan qoziqchali-plankali barabanda erishildi. Demak, qoziqchanning balandligi 80 mm bo'lganda tozalash samaradorlikni ish unumdorlikni oshishida xam kamayishini past darajada bo'lishigi olib kelib, jarayoniga ijobiy ta'sir etmoqda. Lekin oldingi bo'limda chigitning mexanik shikastlanganligini tadqiq etganimizda ushbu variantdagi qoziqchali barabanda qoziqchanning balandligi 65 mm va ichki qoplamaning diametri 270 mm bo'lgan qoziqchali-plankali barabanga nisbatan 0,2 %ga yuqori ekanligini e'tiborga olib, ishlab chiqarish sharoitida o'tkaziladigan tadqiqotlarda qoziqchanning balandligi 65 mm bo'lgan qoziqchali plankali baraban tavsiya etamiz.

Keyingi navbatdagi izlanishlarimizda turli kombinatsiyada joylashgan qoziqchali plankali barabanlarning tozalash samaradorligiga ta'sirini tadqiq etamiz.

Tadqiqotlarda 1XK tozalagichiga qoziqchali plankali barabanlar quyidagi ketma ketlikda o'rnatildi: ta'minlovchi valiklardan so'ng mavjud variantdagi qoziqchali-plankali baraban, undan so'ng qoziqcha va plankaning balandligi 65 mm va qoplamaning diametri 270 mm bo'lgan qoziqchali-plankali baraban, undan so'ng qoziqcha va plankaning balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm bo'lgan qoziqchali-plankali baraban hamda qoziqcha va plankaning balandligi 95 mm va qoplamaning diametri 210 mm bo'lgan qoziqchali-plankali barabanlar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Tadqiqotlarda Nam-77 va S65-24 seleksiya navidagi paxtani tozalashdan oldingi namligi o'z navbatida 8,05; 8,50 % va 8,11; 8,6 %lar va iflosligi 8,2; 11,5 % va 7,5; 10,3 %lardagi paxta xom ashyosidan foydalanildi.

Takomillashtirilgan qoziqchali barabanlarda passiv iflosliklar miqdori mavjud qoziqchali barabanlarga nisbatan ish unumdorlik 3 tonna/soat bo'lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 11,6 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 12,56%ga kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 10,76 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 11,78%ga kamaytirishga erishildi. Tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soat bo'lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 11,85 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 13,35%ga kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 11,45 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 13,03%ga kamaytirishga erishildi. Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo'lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 13,0 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 14,60 %ga kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 12,55 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 14,3 3%ga kamaytirishga erishildi.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo'lganda Nam-77 seleksiyasining I sanoat navida tozalash samaradorlik 45,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, III sanoat navida

48,7 %ni tashkil etib, mavjud tozalagichga nisbatan I sanoat navida 6,35% va III sanoat navida 6,86 %ga tozalash samaradorlikni yuqori bo'lishiga erishildi.

1-jadval

Qoziqchali-plankali barabanlari takomillashtirilgan tozalagichda olib borilgan tadqiqot natijalari


t/r	Ko'rsatkichlar	Nam-77 seleksiya navi		S65-24 seleksiya navi	
		I nav	III nav	I nav	III nav
1.	Paxtani namligi, %	8,05	8,50	8,11	8,6
2.	Paxtani iflosligi, %	8,2	11,5	7,5	10,3
ish unumdorlik 3 tonna/soat					
3.	Tozalagichdan so'ng iflosligi, %	4,06	5,18	3,74	4,75
4.	Tozalagichdan so'ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	15,3	19,5	17,67	22,72
5.	Uskunaning tozalash samaradorligi, %	50,47	54,99	50,11	53,84
6.	Tozalagichdan so'ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,25	0,24	0,20	0,17
ish unumdorlik 5 tonna/soat					
7.	Tozalagichdan so'ng iflosligi, %	4,28	5,57	3,94	5,08
8.	Tozalagichdan so'ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	21,8	25,9	23,65	28,32
9.	Uskunaning tozalash samaradorligi, %	47,8	51,55	47,5	50,7
10.	Tozalagichdan so'ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,48	0,50	0,50	0,52
ish unumdorlik 7 tonna/soat					
11.	Tozalagichdan so'ng iflosligi, %	4,46	5,90	4,10	5,35
12.	Tozalagichdan so'ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	25,5	30,8	26,9	32,5
13.	Uskunaning tozalash samaradorligi,%	45,6	48,7	45,4	48,1
14.	Tozalagichdan so'ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,59	0,65	0,68	0,75

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo'lganda S65-24 seleksiyasining I sanoat navida tozalash samaradorlik 45,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, III sanoat navida 48,1 %ni tashkil etib, mavjud tozalagichga nisbatan I sanoat navida 6,43% va III sanoat navida 7,54 %ga tozalash samaradorlikni yuqori bo'lishiga erishildi.


Demak, qoziqchali-plankali barabanning takomillashtirilgan konstruksiyasini tozalash uskunasi o'rnatilishi natijasida tozalash jarayonidan so'ng paxta tarkibi passiv iflosliklar miqdorini kamayishi va tozalash samaradorlikni yuqori bo'lishiga qoziqchali-plankali barabanning turli konstruksiyada ekanligi sababli havo oqimini ko'payib, ajralgan iflosliklarni to'rtli yuza teshiklaridan chiqib ketishini jadallashganligi bilan izohlanadi.

To'rtli yuza teshiklaridan chiqayotgan havoning tezliklarini iflosliklarni ajralishiga ta'sirini tadqiq etish maqsadida izlanishlar olib borildi. Buning uchun tadqiqot variantlaridagi qoziqchali-plankali barabanlar hosil qilgan havo oqimini

